

---

## Main groups of Russian internet slang: classification, features, and examples

Durdonakhon Gayratjon qizi Toshpulatova  
[durdona.toshpulatova.98@mail.ru](mailto:durdona.toshpulatova.98@mail.ru)  
Independent Researcher

**Annotation** *This article examines the formation features of Russian Internet slang and the mechanisms of creating new lexical units within it. Internet slang is regarded as one of the most active and rapidly developing layers of the modern Russian language, and the social, cultural, and technological factors influencing its development are analyzed. The study compares and generalizes the scholarly views of Russian and foreign linguists on Internet slang, youth slang, and word-formation processes. The main methods of forming Internet slang units are identified, and their linguistic characteristics are explained through relevant examples. In particular, the processes of hybridization, affixation, metaphorization, clipping, compounding, abbreviation, language play, polysemy, and lexical borrowing from foreign languages are examined. Furthermore, the role of Internet slang in youth speech, its communicative functions, its contribution to enhancing expressiveness, and its functional features in contemporary online communication are discussed. The findings demonstrate that the lexical composition of Internet slang is constantly evolving, with English borrowings playing a dominant role and gradually adapting to the phonetic, morphological, and semantic system of the Russian language. The results contribute to a deeper understanding of Internet communication processes and the developmental tendencies of slang vocabulary in contemporary Russian.*

**Keywords** *Internet slang, Russian language, youth slang, word formation, hybridization, affixation, metaphorization, abbreviation, lexical borrowings*

---

## Rus tilidagi internet-slengning asosiy guruhlari: tasnifi, xususiyatlari va misollari

Toshpulatova Durdonaxon G'ayratjon-qizi  
[durdona.toshpulatova.98@mail.ru](mailto:durdona.toshpulatova.98@mail.ru)  
Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada rus internet-slengining shakllanish xususiyatlari hamda unda yangi leksik birliklarning hosil bo'lish usullari tahlil qilingan. Internet-sleng zamonaviy rus tilining faol va jadal rivojlanayotgan qatlamlaridan biri sifatida baholanib, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar yoritilgan. Tadqiqot davomida rus va xorijiy tilshunoslarning internet-slengi, yoshlar slengi hamda so'z yasalihi masalalariga oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan va umumlashtirilgan. Internet-sleng birliklarining hosil bo'lishida qo'llaniladigan asosiy so'z yasalihi usullari aniqlanib, ularning lingvistik xususiyatlari misollar asosida izohlangan. Xususan, gibridlashuv, affiksatsiya, metaforalashuv, qisqartirish, ildizlarni qo'shish orqali yasalihi, abbreviatsiya, so'z va tovush o'yini, polisemiya hamda xorijiy tillardan leksik o'zlashtirish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, internet-slengning yoshlar nutqidagi o'rni, uning kommunikativ vazifalari, ifodaviylikni kuchaytirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy internet-muloqotdagi vazifaviy xususiyatlari yoritilgan. Tahlillar*

*natijasida internet-slengning leksik tarkibi doimiy ravishda yangilanib borishi, ingliz tilidan o'zlashmalarning ustunligi hamda mazkur birliklarning rus tilining fonetik, morfologik va semantik tizimiga moslashishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari zamonaviy rus tilidagi internet-kommunikatsiya jarayonlarini va sleng birliklarining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar** *Internet-sleng, rus tili, yoshlar slengi, so'z yasalishi, gibridlashuv, affiksatsiya, metaforalashuv, abbreviatsiya, leksik o'zlashmalar*

---

## **Основные группы русского интернет-сленга: классификация, особенности и примеры**

**Тошпулатова Дурдонахон**  
**Гайратжон кизи**  
*durdona.toshpulatova.98@mail.ru*  
Независимый исследователь

**Аннотация** *В данной статье рассматриваются особенности формирования русского интернет-сленга и способы образования новых лексических единиц в его составе. Интернет-сленг характеризуется как один из наиболее активных и интенсивно развивающихся пластов современного русского языка, а также анализируются социальные, культурные и технологические факторы, влияющие на его развитие. В ходе исследования были сопоставлены и обобщены научные взгляды отечественных и зарубежных лингвистов на проблемы интернет-сленга, молодежного сленга и словообразования. Определены основные способы образования интернет-сленговых единиц и раскрыты их лингвистические особенности на конкретных примерах. В частности, рассмотрены процессы гибридизации, аффиксации, метафоризации, усечения, сложения основ, аббревиации, игры слов и звуков, полисемии и иноязычных заимствований. Кроме того, освещены роль интернет-сленга в речи молодежи, его коммуникативные функции, значение в усилении экспрессивности речи и функциональные особенности в современной интернет-коммуникации. Результаты исследования показывают, что лексический состав интернет-сленга постоянно обновляется, при этом доминирующую роль играют англоязычные заимствования, которые адаптируются к фонетической, морфологической и семантической системе русского языка. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию процессов интернет-коммуникации и тенденций развития сленговой лексики в современном русском языке.*

**Ключевые слова** *Интернет-сленг, русский язык, молодежный сленг, словообразование, гибридизация, аффиксация, метафоризация, аббревиация, лексические заимствования*

### **Kirish**

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o'rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o'zgartirib, internet muhitining kundalik hayotdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Natijada internet makonida o'ziga xos til birliklari, yangi kommunikativ vositalar hamda noan'anaviy leksik qatlamlar shakllanmoqda. Ana shunday hodisalardan biri internet-slang bo'lib, u zamonaviy til taraqqiyotining eng faol va dinamik ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Slang til leksikasining qat'iy normallashtirilmagan, o'zgaruvchan va ochiq xarakterga ega bo'lgan qatlami hisoblanadi. Uning tarkibi jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy va texnologik o'zgarishlar ta'sirida muntazam ravishda yangilanib boradi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida slang birliklarining qo'llanish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Bu esa internet-slangni zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biriga aylantirdi.

Rus tilidagi internet-slangning shakllanishi va rivojlanishida ingliz tilining ta'siri alohida o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya sohalarida ingliz tilining yetakchi mavqega egaligi natijasida ko'plab yangi leksik birliklar rus tiliga o'zlashib, uning morfologik va semantik tizimiga moslashmoqda. Natijada gibridlashuv, affiksatsiya, metaforalashuv, abbreviatsiya, qisqartirish va boshqa so'z yasash usullari asosida yangi internet-slang birliklari yuzaga kelmoqda.

Mazkur masala rus va xorijiy tilshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, E.V. Xarkova va K.M. Amirxanova (2016), L.A. Zaxarova va A.V. Shuvayeva (2014), V.K. Mondoshova (2024), Y.Y. Matyushenko (2007), M.A. Krongauz (2005), N.S. Valgina (2003) kabi olimlarning ilmiy ishlari internet-slangning lingvistik xususiyatlarini

o'rganishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi rus internet-slangining shakllanish xususiyatlarini o'rganish hamda unda qo'llaniladigan asosiy so'z yasash usullarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun rus internet-slangining shakllanish omillari, tarkibiy guruhlari va ularning lingvistik xususiyatlari ilmiy manbalar hamda amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.

Slang til leksikasining muassasaviy jihatdan qat'iy normalashmagan, o'zgaruvchan va ochiq xarakterga ega bo'lgan qatlami sifatida tavsiflanadi. Uning tarkibiy tuzilishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlari ta'sirida uzluksiz ravishda yangilanib, vazifaviy jihatdan kengayib boradi. Shu nuqtai nazardan, slang birliklari har qanday til tizimining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanish jarayoni qonuniyatlarini hamda kommunikativ ehtiyojlar bilan bog'liq o'zgarishlarini namoyon etadi.

Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, shuningdek, yangi texnologiyalar va tushunchalarning vujudga kelishi tilning leksik tizimida muayyan o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Demak, til turg'un emas, balki uzluksiz ravishda taraqqiy etib boruvchi faol tizim sifatida namoyon bo'ladi.

"Толковый словарь русского языка XX века. Языковые изменения" kitobida quyidagilar ta'kidlanadi: "Tilni abadiy ravishda o'zgarish holatda o'rnatish va mustahkamlash, albatta, mumkin emas. Bunday holatda u o'zining asosiy vazifasi – o'zgarib borayotgan dunyoni aks ettirish vazifasini bajara olmas edi. O'zgarishlarga eng ko'p moyil bo'lgan soha – bu leksika bo'lib, u tilning eng harakatchan va sezgir qismi hisoblanadi. So'zlar nutq jarayonida, ya'ni jonli qo'llanish davomida paydo bo'lib, shakllanadi va ulardagi o'zgarishlar ma'lum darajada umumiy leksik tizimga ta'sir ko'rsatadi" (Скляревская, 1998).

So'nggi yillarda sleng hodisasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonining ortib borishiga qaramasdan, ushbu masala o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bu esa, avvalo, til tizimining o'zgaruvchan tabiati, shuningdek, jamiyatda kechayotgan global va mahalliy o'zgarishlarning lingvistik jarayonlarga bevosita ta'siri bilan izohlanadi.

Yoshlar slengini, ayniqsa, undagi neologizmlarning yaratilish tuzilmalarini tizimli tahlil qilish til taraqqiyotining ichki o'zgarish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv orqali zamonaviy yoshlar, xususan, tadqiqot doirasida rus va o'zbek yoshlari ongida shakllanayotgan til namunalari hamda ijtimoiy-madaniy ustuvorliklarning o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

Internet-slengining muhim xususiyatlaridan biri uning so'zlashuv uslubiga yaqinligi hamda ko'pincha kinoyali semantik yuklamani o'z ichiga olishidir. Bu holat, ayniqsa, yoshlar nutqiga xos bo'lgan belgilardan biri sifatida namoyon bo'ladi, zero kompyuter texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida yoshlar ulushi yuqori hisoblanadi (Каркаева, 2018). N.S. Valgina qayd etganidek, global kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi inson muloqotining yangi shakl va usullarini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayon til tizimida ham o'z ifodasini topib, zamonaviy rus tilining xalqaro kommunikativ muhitda faol ishtirok etishiga olib kelmoqda. Xususan, yangi muloqot shakllari, ayniqsa, talabalar va yoshlar qatlami orasida keng tarqalayotgani bois, kasbiy slengning kengayishi tabiiy va qonuniy jarayon sifatida baholanadi (Валгина, 2003). Shu nuqtai nazardan, internet slengi muayyan ijtimoiy qatlamga xos bo'lgan, asosan yosh avlod vakillari o'rtasida norasmiy muloqotni ta'minlovchi lingvistik vosita sifatida talqin qilinishi mumkin.

K.P. Podrabinek yoshlar slengini taxminan 13–30 yosh oralig'idagi shaxslarga xos bo'lgan ijtimoiy dialekt sifatida tavsiflaydi. Uning qarashlariga ko'ra, mazkur lingvistik qatlam

yosh avlodning nafaqat katta yoshdagi ijtimoiy guruhlarga, balki muassasaviy va rasmiy tuzilmalarga nisbatan qarama-qarshi munosabati negizida shakllanadi. Shu bilan birga, tadqiqotchi sleng birliklarining asosan shahar muhitidagi o'quvchi yoshlar nutqida, shuningdek, muayyan darajada yopiq xarakterga ega bo'lgan asosiy guruhlar doirasida faol qo'llanilishini alohida ta'kidlaydi (Подрабинек, 1999).

Hozirgi kunda rus internet-slengi asosan ingliz tili ta'sirida shakllanmoqda. Bu holat ingliz tilining global axborot texnologiyalari sohasida yetakchi o'rin tutishi va rus tili lug'at tarkibiga turli sohalar bo'yicha o'zlashmalarning asosiy manbai sifatida kirib kelayotgani bilan izohlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, ingliz tili rus internet-slengining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, ingliz tilidan olingan leksik birliklar rus tilida moslashib, fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zgarishga uchraydi hamda yangi sleng birliklarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bu jarayon tillararo aloqa natijasi bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida yanada faollashmoqda. L.L. Fyodorova ta'kidlaganidek, "rus tilining hozirgi holatiga xos jihatlardan biri – inglizcha terminlarning roli ortib borayotganidir. Ingliz tili asosan kasbiy sotsiolektlar va jargonlar orqali kirib keladi. Kompyuterga oid kasbiy lug'atni o'zlashtirish til aralashuvi orqali, ya'ni ikki til tizimining – ingliz va rus tillarining ustma-ust tushishi natijasida amalga oshadi" (Федорова, 1991).

Mazkur jarayonda inglizcha leksemalar rus tiliga kirib, fonetik va morfologik jihatdan qayta ishlanadi (masalan, "to click" – "кликать", "user" – "юзер"), natijada yangi sleng va kasbiy birliklar shakllanadi. Bu esa zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida tillararo birlashuv va globallashuv jarayonlarining yaqqol ko'rinishidir.

Rus tilida internet-slengning asosiy guruhlari va misollari tahlilini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular orasida Y.V. Xarkova hamda K.M.

Amirxanovanning “Способы словообразования в молодёжном сленге русского языка” nomli maqolasida rus yoshlar slengida yangi leksik birliklarning hosil bo’lish jarayonlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan mazkur leksik qatlamda so’z yasalishining sakkizta yetakchi mexanizmi ajratib ko’rsatiladi. Jumladan, ular qatoriga abbreviatsiya, affiksatsiya, jinoiy argo elementlarining o’zlashtirilishi, ko’p ma’nolilik, metaforik ko’chish, teleskopik birikmalarning hosil qilinishi, fonetik mimikriya hamda xorijiy tillardan leksik o’zlashtirish jarayonlari kiritiladi. Ushbu usullar yoshlar nutqidagi innovatsion jarayonlarning asosiy yo’nalishlarini belgilab beruvchi muhim omillar sifatida tavsiflanadi (Харькова ва Amirxanova, 2016).

L.A. Zaharova hamda A.V. Shuvayevaning “Словарь молодёжного сленга” kitobida yoshlar slengida so’z yasaliş jarayonlari muayyan tizim asosida tasniflangan. Mualliflar mazkur leksik qatlamda so’z hosil qilishning yettita asosiy turini ajratib ko’rsatadilar. Ular qatoriga *гибридизация, аффиксация, метафорика* (metaforik ma’no ko’chishi), *усечение* (qisqartirish), *сложение корней* (ildizlarni qo’shish orqali yasaliş), *аббревиация* hamda *игра слов звуков* (so’z va tovush o’yiniga asoslangan kalamburli birliklar) kiradi (Zaharova va Шуваева, 2014). Mazkur tasnif yoshlar slengidagi so’z yasalişga oid jarayonlarning o’ziga xos mexanizmlarini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

V.K. Mondoshovanning “Словообразовательные возможности молодёжного сленга (на примере школьной и студенческой аудитории г. Бишкек)” nomli maqolasida yoshlar slengi birliklarida yangi so’zlarni yasalişning quyidagi usullari qayd etilgan: o’zlashtirish, affiksatsiya, abbreviatsiya, ko’p ma’nolilik va metaforalashuv jarayoni (Мондошова, 2024).

Sleng leksikasining shakllanish jarayonida umumiy so’z yasaliş qonuniyatlari qo’llaniladi. Y.Y. Matyushenkoning fikriga ko’ra, “yoshlar slengida nomlashning eng ko’p uchraydigan

usullari ... affiksatsiya, metaforalash va chet tillardan o’zlashtirish hisoblanadi. Slengda affiksatsiya so’z yasalişning barcha asosiy turlarini – suffiksatsiya, prefiksatsiya va suffiksatsiya-prefiksatsiya usullarini ajratish mumkin. Slengda fe’llarni affiksatsiya yordamida yasaliş sifatlariga nisbatan kengroq tarqalgan bo’lsa-da, otlarning affiksatsiyasiga nisbatan ancha kamroq uchraydi. Shu bilan birga, affiksatsiya nafaqat rus, balki chet el ildizlari bilan ham samarali qo’llaniladi” (Матюшенко, 2007).

Bizning fikrimizga ko’ra, rus tilidagi internet-slengni tadqiq etishda uni faqat leksik guruhlariga ajratish bilan cheklanib qolmasdan, uning shakllanish jarayoni va vaqt davomidagi rivojlanish jarayoni ham atroflicha yoritish muhimdir. Shu munosabat bilan, internet-slengning asosiy guruhlarini tahlil qilish bilan bir qatorda, uning rivojlanish bosqichlarini ham aniq misollar asosida izchil ko’rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida rus internet-slengidagi so’z yasaliş usullarini quyidagi to’qqiz guruhga ajratdik.

1. **Гибридизация.** (Gibridlashuv). Rus tilidagi internet-slengda gibridlashuv – ya’ni ingliz va rus til elementlarining qo’shilishi – eng mahsuldor so’z yasaliş usullaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda inglizcha asos (ildiz) rus tilining morfologik qoidalariga moslashtirilib, yangi sleng birliklari yaratiladi.

Til gibridlashuvining o’ziga xosligi shundaki, u turli etimologik manbaga ega bo’lgan ildiz va affikslarning birikuvi orqali namoyon bo’ladi. L.D. Kadirovning yondashuviga tayanib, “gibridlashuv” atamasini biz “genetik jihatdan har xil bo’lgan elementlardan, ayniqsa, asoslar va affikslardan tarkib topgan yasalma so’zga nisbatan” (Кадирова, 2014) qo’llaymiz.

Rus tilidagi internet-slengda gibridlashuv va so’z yasaliş jarayonlari muhim o’rin egallaydi. Ushbu usullar orqali ingliz va rus til elementlarining o’zaro ta’siri natijasida yangi leksik birliklar shakllanadi. Ayniqsa, internet

muhitida ingliz tilining yetakchi mavqei tufayli, ko'plab sleng birliklari inglizcha ildizlar asosida yuzaga kelib, rus tilining morfologik qoidalariga moslashtiriladi.

Internet-slangda eng keng tarqalgan usullardan biri – inglizcha asosga ruscha fe'l yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali yangi fe'llarni hosil qilishdir. Jumladan, *андейтуть, скроллить, логиниться* kabi birliklar bunda yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur holatda inglizcha leksik asos saqlanib qoladi, biroq u rus tilining grammatik tizimiga moslashgan holda faol qo'llaniladi.

Shu bilan birga, ot va sifat yasash jarayonlarida ham gibridd shakllar kuzatiladi. Masalan, *пранкер, флексер, постинг* kabi otlar hamda *фейковый, топовый, хайповый, кринжовый* kabi sifatlar inglizcha ildiz va ruscha suffikslar birlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, rus tiliga xos prefikslar yordamida ham yangi sleng birliklari hosil qilinadi: *заспамить, пофуксить, отлайкать*, kabilar shular jumlasidandir.

Shu tariqa, gibridlashuv orqali so'z yasash usullari rus internet-slangining eng faol va mahsuldor qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ushbu jarayon nafaqat ingliz tili ta'sirining kuchligini, balki rus tilining zamonaviy muloqot sharoitidagi moslashuvchanligi va o'zgaruvchan rivojlanish xususiyatini ham yaqqol namoyon etadi.

2. **Аффиксация.** (Affikslash). Rus tilidagi internet-slangda affikslash usuli so'z yasashning eng faol vositalaridan biri hisoblanadi. "Yoshlar slengida, asosan, eng keng tarqalgan va standart suffiks hamda prefikslardan foydalaniladi" (Береговская, 1996). Ushbu jarayon orqali yangi sleng birliklari turli affikslar – ya'ni suffiks va prefikslar yordamida hosil qilinadi. Internet muhitida tilning tezkor rivojlanishi va yangi tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj affikslash orqali leksik boyishni yanada kuchaytiradi.

Internet-slangda, ayniqsa, suffikslash keng tarqalgan bo'lib, u asosan inglizcha va ruscha ildizlarga rus tiliga xos qo'shimchalar

qo'shish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, *-ить, -ать, -нуть* kabi fe'l yasovchi suffikslar orqali *анфолловить, чекать, шерить, ангрейдить* kabi birliklar yuzaga keladi. Bu holatda so'zning semantik asosi ingliz tilidan olingan bo'lsa-da, uning grammatik shakli rus tili qoidalariga moslashadi.

Shu bilan birga, ot va sifat yasashda ham suffikslar faol qo'llaniladi. Masalan, *"-ер"* suffiksi yordamida *пеностер, донатер* kabi otlar, *"-овый, -ный"* suffikslari orqali esa *мемовый, флексный, рандомовый* kabi sifatlar hosil qilinadi. Bunday birliklar internet muloqotida keng qo'llanilib, zamonaviy leksik qatlamni boyitadi.

Prefiks orqali yasash ham affiksatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Rus tiliga xos *"за-, по-, пере-, от-"* kabi prefikslar yordamida yangi ma'no tulari yaratiladi: *зашерить, зафолловить, перепостить, отфрендить* kabi birliklar shular jumlasidandir. Bu jarayonda prefikslar harakatning yo'nalishi, natijasi yoki jadalligini ifodalaydi.

Affikslash usulining muhim jihatlaridan biri shundaki, u internet-slangdagi gibridlashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, ko'p hollarda inglizcha ildizlar ruscha affikslar bilan birikib, yangi leksik birliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa tilning moslashuvchanligi va tashqi ta'sirlarga ochiqqligini ko'rsatadi.

3. **Метафорика.** (Metaforik ma'no ko'chishi). Metaforalashuv rus tili internet-slangi leksikasini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan usullardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda so'z o'zining asosiy ma'nosidan chekinib, tashqi o'xshashlik yoki muayyan ta'sir belgisi asosida yangi, ko'chma ma'noni ifoda eta boshlaydi.

A.A. Sosnovskayaning "Роль сленговых метафорических номинаций в интернет-общении" nomli tadqiqotida internet-slangida metaforik atamalar keng o'rin egallashi ta'kidlanadi. Muallifning qayd etishicha, maxsus jargon lug'atlari, internet materiallari va tarmoq foydalanuvchilari nutqi tahlili asosida

aniqlangan metaforik birliklar soni 500 tadan ortiqni tashkil etadi. Bu kabi atamalar turli semantik guruhlarda faol uchrab, internet-slengi leksikasining muhim va sarmahsul qatlamlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi (Сосновская, 2010).

Internet muhitida metaforik birliklar, asosan, insonning xulq-atvori, tashqi ko'rinishi, texnik vositalar, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat hamda hissiy holatlarni tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Rus internet-slengida bunday metaforik birliklar keng tarqalgan. Masalan, *хомяк* – internetdagi har qanday ma'lumotga tanqidiy yondashmasdan ishonadigan shaxs, *овощ* – faol emas, passiv foydalanuvchi, *динозавр* – raqamli texnologiyalardan foydalanishda qiynaladigan katta yoshli inson, *акула* – katta tajribaga ega bloger yoki jurnalist kabi ma'nolarda ishlatiladi.

Shuningdek, internet muloqotida harakat va hissiy holatni ifodalovchi metaforik birliklar ham mavjud. Jumladan, *зависать* – internetda uzoq vaqt qolib ketish, *залунать* – ma'lum bir kontentga ortiqcha berilib ketish, *сливать* – maxfiy ma'lumotni tarqatish, *мусор* – ahamiyatsiz yoki foydasiz kontent.

Metaforalashuv internet-slengida nutqning tasviriyligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ayniqsa, mazkur usul yoshlar nutqida juda faol bo'lib, internet muloqotining qisqa, hissiy va ifodali bo'lishini ta'minlaydi.

4. **Усечение.** (Qisqartirish). Qisqartirish rus tili internet-slengida keng qo'llaniladigan so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Mazkur usul so'zning muayyan qismi tushirib qoldirilishi orqali amalga oshiriladi. Bu esa nutqni ixchamlashtirish, muloqot tezligini oshirish va muloqotni soddalashtirish vazifasini bajaradi.

L.A. Zaxarova va A.V. Shuvayeva talqiniga ko'ra, ushbu so'z yasash usuli jargonda murakkab so'zlar yoki so'z birikmalarini qisqartirish, vaqt va nutqiy sa'y-harakatlarni tejash, ayrim hollarda esa muloqot mazmunini yashirish maqsadida qo'llaniladi (Захарова ва Шуваева, 2014).

Internet-slengida qisqartirish bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi: so'zning bosh qismi saqlanib, keyingi qismi tushirilishi; aksincha, oxirgi qismi qoldirilib, bosh qismi qisqartirilishi; so'zning o'rta qismi qisman tushirilishi; shuningdek, murakkab birikmalar tarkibidan faqat asosiy qismining saqlanib qolishi.

Rus internet-slengida bu kabi qisqartirishlarga ko'plab misollar uchraydi: *комп* – компьютер, *ноут* – ноутбук, *ава* – аватар, *видос* – видео, *личка* – личное сообщение, *днюха* – день рождения.

Qisqartirish asosida shakllangan sleng birliklari, odatda, so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, yoshlar hamda internet foydalanuvchilari o'rtasida tezkor va qulay muloqotni ta'minlaydi. Shu jihatdan, mazkur usul internet tilining tejamkorlik va ixchamlik xususiyatini yaqqol ifoda etadi.

5. **Сложение корней.** (Ildizlarni qo'shish orqali yasaliş). Ildizlarni qo'shish orqali yasaliş rus tili internet-slengida yangi leksik birliklarni hosil qilishning sarmahsul usullaridan biri sanaladi. Ushbu usul ikki yoki bir nechta negizning qo'shilishi orqali yangi ma'noni ifodalovchi so'zlarni shakllantirishga asoslanadi. Bunday birliklar, ko'pincha, internet muhiti, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda yoshlar muloqotiga oid tushunchalarni anglatish uchun xizmat qiladi.

Rus internet-slengida negizlarni qo'shish orqali hosil qilingan ko'plab birliklar mavjud. Jumladan, *фотошоп* (*foto* + *shop*), *фейк-аккаунт* (*фейк* + *аккаунт*), *инфоцыган* (*инфо* + *цыган*), *лайфхак* (*life* + *hack*) kabi birliklar shular jumlasidandir.

Negizlarni qo'shish orqali yasalgan internet-sleng birliklari raqamli muhitga oid murakkab tushunchalarni ixcham va aniq shaklda ifodalash imkonini beradi. Shu sababli mazkur usul zamonaviy internet makonida paydo bo'layotgan yangi slenglarni nomlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. **Аббревиация.** (Qisqartmalar). So'zlarni qisqartirish rus tili internet-slangida yangi leksik birliklarni hosil qilishning samarali usullaridan biri sanaladi. "So'zlarni qisqartirishning internet-diskursdagi o'rni va uning hosilaviy salohiyati alohida e'tiborga loyiqdir. An'anaviy abreviaturalar (masalan, *вуз*, *НАТО*) asosan rasmiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, internet muhitida qo'llaniladigan qisqartmalar ko'pincha o'yin, ekspressivlik va norasmiylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular yuqori hosilaviy salohiyatga ega bo'lib, yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Natijada internet-diskursda qisqartmalar nafaqat nutqni ixchamlashtirish vositasi, balki yangi sleng birliklarini shakllantirishning faol manbalaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi." (Абдурахманова, 2026). Mazkur usul murakkab atama yoki so'z birikmalarining qisqartirilgan shaklini yaratish orqali amalga oshiriladi. Internet muloqotida qisqartmalar vaqtni tejash, xabar yozish jarayonini tezlashtirish hamda nutqni ixchamlashtirish vazifasini bajaradi.

Rus internet-slangida so'zlarni qisqartirish, asosan, harfiy qisqartmalar, bosh harflar birikmasidan tashkil topgan birliklar va qisman qisqartirilgan shakllar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bu kabi birliklarga *FYI – for your information*, *ЧС – чёрный список*, *МБ – может быть*, *КМК – как мне кажется*, *КРЧ – короче* kabi misollarni kiritish mumkin.

So'zlarni qisqartirish asosida shakllangan internet-slang birliklari, ayniqsa, chatlar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda faol qo'llaniladi. Ular yozma muloqotning tezkorligi va ixchamligini ta'minlab, internet muloqotining muhim xususiyatlaridan birini tashkil etadi

7. **Игра слов, звуков.** (So'z va tovush o'yiniga asoslangan kalamburli birliklar). So'z va tovush o'yiniga asoslangan

kalamburli birliklar rus tili internet-slangida yangi leksik birliklarni yaratishning ta'sirchan usullaridan biri hisoblanadi. Lingvistikada kalamburli birliklar, odatda, til o'yinining alohida shakli sifatida qaraladi va u "ifodali nutqning semantik-fonetik hodisasi" dir (Вороничев, 2014). Ushbu usul so'zlarning fonetik o'xshashligi, talaffuz yaqinligi, ikki ma'noliligi yoki shaklan ataylab o'zgartirilishiga asoslanadi. Shu orqali hazil, kinoyali va kuchli ta'sirchanlikka ega bo'lgan sleng birliklari yuzaga keladi.

Rus internet muhitida bunday birliklar, odatda, inglizcha so'zlarni ruscha talaffuzga moslashtirish, so'z shaklini qasddan buzish yoki ma'no bilan o'ynash natijasida hosil bo'ladi.

Kalambur va tovush o'yini asosida shakllangan internet-slang birliklariga *аффтар – автор, красавчег – красавчик, зачот – зачёт, четкий – чёткий, мну – меня/мне, ты – тебя* kabi birliklarni kiritish mumkin.

Mazkur sleng birliklari internet muloqotida hazilomuzlik, kinoyalilik, norasmiylik hamda emotsionallikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ular, ayniqsa, forumlar, chatlar, memlar va ijtimoiy tarmoqlarda faol qo'llanilib, zamonaviy internet madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.

8. **Полисемия.** (**Ко'рма'nolilik**).

Ко'рма'nolilik rus tili internet-slangida muhim semantik xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ко'рма'nolilik М.А. Кронгауз qarashlariga ko'ra, bir til birligining ma'no va kelib chiqish jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta ma'nolarda qo'llanilishini anglatadi (Кронгауз, 2005). Internet muhitida ko'рма'nolilik, odatda, yangi ma'nolarning yuzaga kelishi, mavjud ma'nolarning kengayishi yoki muayyan kontekst ta'sirida o'zgarishi natijasida shakllanadi.

Rus internet-slangida ko'plab so'zlar bir vaqtning o'zida bir nechta ma'noni anglatishi

mumkin. Bunda soʻzning dastlabki maʼnosi saqlanib qoladi, ammo internet kommunikatsiyasiga xos boʻlgan yangi semantik qirralar ham qoʻshiladi.

Masalan, *бан* soʻzi taqiqlash maʼnosini anglatishi bilan birga, akkauntni vaqtincha yoki doimiy ravishda bloklashni ham bildiradi. *Пост* bir tomondan xabar yoki yozuvni anglatadi, ikkinchi tomondan ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan kontent maʼnosida qoʻllaniladi. *Стена* soʻzi oddiy devor maʼnosidan tashqari, ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy sahifaning maʼlum qismiga nisbatan ham ishlatiladi.

Shuningdek, *троль* – mifologik timsol va internetda mojaro chiqaruvchi shaxs, *бот* – avtomatik dastur va sunʼiy akkaunt, *слив* – maxfiy maʼlumotning tarqalishi maʼnosida ishlatiladi.

Koʻpmaʼnolilik internet-slangida leksik birliklarning maʼno doirasini kengaytiradi va ularning turli kommunikativ vaziyatlarda faol qoʻllanilishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, mazkur hodisa internet muloqotining ifodaviyligi, tasviriyliigi va taʼsirchanligini kuchaytiradi.

9. **Иноязычные заимствования.** (Xorijiy tillardan leksik oʻzlashtirish jarayonlari). Xorijiy tillardan leksik oʻzlashtirish jarayonlari rus tili internet-slangi tarkibini boyitishda eng serunum manbalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda, asosan, ingliz tilidan oʻzlashtirilgan leksik birliklar rus internet muhiti talablariga moslashtirilib, faol qoʻllaniladi. Xorijiy tillardan kirib kelgan soʻzlar "tilga shunchaki kirib kelmaydi, balki ijodiy jihatdan qayta ishlanadi va ular uchun begona boʻlgan muhitga moslashtiriladi; mazkur muhit esa yetarlicha kuchli boʻlib, oʻzga til tarkibiy qismlarini oʻziga boʻysundira oladi" (Валгина, 2003). Mazkur oʻzlashmalar koʻproq axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn oʻyinlar, blog faoliyati hamda raqamli muloqot sohalari bilan bogʻliq holda uchraydi.

Internet-slangiga kirib kelgan xorijiy soʻzlar, odatda, rus tilining fonetik, grafik va grammatik qoidalariga muvofiq lashtiriladi. Shu tariqa ular ruscha affikslarni qabul qiladi, turli grammatik shakllarga ega boʻladi va yangi hosila birliklarni vujudga keltiradi.

Rus internet-slangida keng tarqalgan oʻzlashma birliklarga *хейт* (hate), *ник* (nickname), *вайб* (vibe), *флексить* (flex), *шунперуть* (ship) kabi birliklarni misol qilish mumkin.

Bu kabi oʻzlashma soʻzlar internet muloqotida yangi tushunchalarni qisqa va aniq shaklda ifodalash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ular raqamli muhitda paydo boʻlayotgan yangi voqelik va tushunchalarni nomlashda muhim leksik vosita sifatida xizmat qiladi.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, rus internet-slangi zamonaviy rus tilining eng faol va dinamik rivojlanayotgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda global axborot-kommunikatsiya jarayonlari bilan chambarchas bogʻliq. Internet-slang tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, yangi tushuncha va hodisalarni qisqa, qulay hamda taʼsirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida rus internet-slangida yangi leksik birliklarning hosil boʻlishida gibridlashuv, affiksatsiya, metaforalashuv, qisqartirish (*усечение*), ildizlarni qoʻshish orqali yasaliş, abbreviatsiya, soʻz va tovush oʻyini, polisemiya hamda xorijiy tillardan leksik oʻzlashtirish kabi usullar muhim oʻrin egallashi aniqlandi. Ular orasida gibridlashuv va ingliz tilidan oʻzlashtirish jarayonlari eng mahsuldor usullar sifatida namoyon boʻlib, internet-slang tarkibining muntazam boyib borishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, internet-slang birliklarining aksariyati ingliz tilidan kirib kelgan boʻlsa-da, ular rus tilining fonetik, morfologik va semantik xususiyatlariga moslashib, mustaqil leksik birliklar sifatida faol qoʻllanilmoqda. Bu holat rus tilining tashqi taʼsirlarga moslashuvchanligi

hamda yangi kommunikativ ehtiyojlarga tez javob bera olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, rus internet-slengi nafaqat norasmiy muloqot vositasi, balki zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy va lingvistik o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim til

hodisasi hisoblanadi. Uning tarkibi va so'z yasash xususiyatlarini o'rganish zamonaviy rus tilining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda internet kommunikatsiyasining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

## References:

1. Абдурахманова, А. Б. (2026). Цифровая лингводидактика: изучение современных неологизмов и интернет-словообразования. *Актуальные проблемы русского словообразования*, 1, 32-37.
2. Береговская, Э. М. (1996). *Молодёжный сленг: формирование и функционирование. Вопросы языкознания*. Москва: Наука.
3. Валгина, Н. С. (2003). *Активные процессы в современном русском языке*. Москва: Логос.
4. Вороничев, О. Е. (2014). *Каламбур как феномен русской экспрессивной речи* (автореф. дис. ... д-ра филол. наук). Москва.
5. Захарова, Л. А., Шуваева, А. В. (2014). *Словарь молодёжного сленга*. Томск: Издательский Дом ТГУ.
6. Кадирова, Л. Д. (2014). *Гибридные неонимации в современном масс-медийном дискурсе: семантико-деривационный аспект* (дис. ... канд. филол. наук). Симферополь.
7. Каркаева, М. А. (2018). Социокультурный феномен молодёжного сленга в киберпространстве. *Филологические науки. Научные доклады высшей школы*, 3, 45-49.
8. Кронгауз, М. А. (2005). *Семантика*. Москва: Академия.
9. Матюшенко, Е. Е. (2007). *Современный молодёжный сленг: формирование и функционирование* (автореф. дис. ... канд. филол. наук). Волгоград.
10. Мондошова, В. К. (2024). Словообразовательные возможности молодёжного сленга (на примере школьной и студенческой аудиторий г. Бишкек). *Вестник Бишкекского государственного университета*, 1(67), 54-63.
11. Подрабинек, К. П. (1999). Много жаргонов, хороших и разных. *Русский язык (приложение к газете «Первое сентября»)*, 40, 2-3.
12. Сосновская, А. А. (2010). Роль сленговых метафорических номинаций в интернет-общении. *Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Филология. Журналистика*, 2.
13. Складаревская, Г. Н. (Ред.). (1998). *Толковый словарь русского языка конца XX века: Языковые изменения*. Фолио-Пресс.
14. Федорова, Л. Л. (1991). Типология речевого воздействия и его место в структуре общения. *Вопросы языкознания*, 6, 46-50.
15. Харькова, Е. В., & Амирханова, К. М. (2016). Способы словообразования в молодёжном сленге русского языка. *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, 10(64).